

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

"TASDIQLAYMAN"

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining birinchi o'rinbosari

K. Karimov

2023-yil _____ dekabr



**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV KADRLAR
ZAXIRASINI MAQSADLI O'QITISH KURSINING**

O'QUV DASTURI

Toshkent - 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

Professional ta'lim muassasalari boshqaruv kadrlar zahirasini maqsadli malakasini oshirish kursining o'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti Ilmiy kengashining 2023-yil _____dagi __-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan

Tuzuvchilar:

Institut boshqarma boshlig'i **A.Xayitov**,
Kafedra mudrlari **F.Mamarasulov**,
J.Shasalimov, **N.Sirojiddinova**
Institut bosh mutaxassislari **F.Yusupov**,
A.Zakirov, **N.Charshanbiyev**.

Taqrizchilar:

Jizzax viloyati Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i v.v.b
Texnika fanlari nomzodi, dotsent
S.Tavboyev

Navoiy viloyati Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i
O'.Mirzoyev

KIRISH

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son, 2022-yil 29-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohatlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 3-dekabrdagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining boshqaruv kadrlari zaxirasini maqsadli o'qitishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 351-sonli qarori ijrosini ta'minlash.

Malaka oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadbiq etish yo'li bilan professional ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida professional ta'lim muassasalari direktorlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini kredit-modullari orqali muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi Davlat siyosati, ta'limda boshqaruv, boshqaruvda huquqiy masalalar, moliyaviy-iqtisodiy masalalar, mas'uliyat va moslashuvchanlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, o'zini-o'zi rivojlantirish, tinglovchilar bilimini baholash bloklarini o'z ichiga olib, ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan professional ta'lim muassasalari direktorlari malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, ta'lim muassasasi rahbar kadrlarining boshqaruvga oid zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tadbiq etish darajasini oshirishni nazarda tutadi.

Bevosita ta'lim muassasasida malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi bloklaridan iborat:

1. Ta'limda boshqaruv
2. Boshqaruvda huquqiy masalalar
3. Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar
4. Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik

5. Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik
6. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish
7. O'zini-o'zi rivojlantirish
8. Tinglovchilar bilimni baholash

Malaka oshirish kursning maqsadi va vazifalari

Professional ta'lim muassasalari direktorlari uchun tashkil qilinadigan malaka oshirish kursining maqsadi - ta'lim muassasalarini boshqarish, ta'lim muassasalarini boshqarishning huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy masalalari, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, malaka talablari asosida ularning boshqaruvga oid kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy- me'yoriy asoslarini singdirish;

ta'lim muassasalarini boshqarishning ilg'or texnologiyalari va xorijiy tajribalarni o'rgatish;

rahbar xodimlarni ta'lim muassasalarini boshqarishning moliyaviy- iqtisodiy masalalariga doir bilimlar bilan qurollantirish;

tinglovchilarni ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy usullari bilan tanishtirish;

rahbar xodimlarning mafkuraviy kompetentligi va mas'uliyatini oshirish;

rahbar xodimlarga boshqaruv jarayonida optimal qarorlar qabul qilish texnologiyalarini o'rgatish;

rahbar xodimlarning boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash malakalarini rivojlantirish;

ta'lim muassasalari rahbarlarini xorijiy tilni o'rganishga yo'naltirish;

ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablar

Malaka oshirish kursi o'quv rejasining "Ta'limda boshqaruv", "Boshqaruvda huquqiy masalalar", "Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar", "Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik", "Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik", "Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish", "O'zini-o'zi rivojlantirish" bloklari bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablar tegishli yo'nalish bo'yicha professional ta'lim muassasalari direktorlari malakasini

oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

O'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quydagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda komitensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni;
- professional ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini;
- ta'lim muassasalari boshqarishning ilg'or texnologiyalari va xorijiy tajribalarni;
- ta'lim muassasasini boshqarishning moliyaviy- iqtisodiy masalalariga doir bilimlarni;
- ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy usullarini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- rahbar xodimlarning mafkuraviy kompetentligi va mas'uliyatini oshirish;
- rahbar xodimlar boshqaruv jarayonida optimal qarorlar qabul qilish texnologiyalarini qo'llay bilish;
- rahbar xodimlarning boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash;
- ta'lim muassasalari rahbar xodimlari malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish;
- ta'lim muassasalari rahbar xodimlari malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish maqsadida o'z ustida ishlash;
- professional ta'lim muassasalari direktorlari malaka oshirish kursi yakunida umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan, ta'lim muassasasi rahbar kadrlarining boshqaruvga oid zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tadbiq etish darajasini oshirishga bo'yicha *ko'nikma va malakalarga* ega bo'lishi kerak.

Kurs hajmi

Malaka oshirish kursining davomiyligi bir oy 24 kredit 144 soatni tashkil etadi. Malaka oshirish toifasi bo'yicha ta'lim dasturlari bo'yicha kredit ballarini to'plagan va modullarni to'liq o'zlashtirgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Professional ta'lim muassasalari boshqaruv kadrlar zahirasinining malakasini oshirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

I. TA'LIMDA BOSHQARUV

1.1. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar, kadrlar siyosati

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining mazmun mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'ruzalarida yoshlar tarbiyasiga oid masalalarning qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisga murojaatnomalari. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Davr talabi asosida milliy manfaatlarni ro'yobga chiqarish maqsadida ta'lim-tarbiya sohasi oldida turgan dolzarb muammolar. Yuksak ma'naviyatli rahbar - bugungi davr talabi ekanligi. Yuksak ma'naviyatli rahbarlarni shakllantirish: muammo va yechimlar. Kadrlar siyoati ijtimoiy hamkorlik va sheriklik asosida. Mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash. Ta'limda mehnatning funksional taqsimoti. Kadrlar zahirasini shakllantirish. Inson kapitalini yaratish, inson kapitali indeksi, inson kapitali bo'yicha loyihalar, strategik maqsadlar. Inson kapitalini optimal rejalashtirish.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mazmuni. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-67-son farmoni mazmuni. Konstitutsiya yoshlar bilim olishining qonuniy asosi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi mazmun mohiyati. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi: maqsadlar va kutilayotgan natijalar.

II. BOSHQARUVDA HUQUQIY MASALAR

2.1. Professional ta'limda meyoriy-huquqiy hujjatlar

Ta'lim tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari. Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi va ularning turlari. Professional ta'lim tizimining qonun osti hujjatlari va ularning mazmuni. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosini ta'minlash: mas'ul davlat organlari, ularning vakolatlari. Bola huquqlari kafolatlarining milliy va xalqaro huquqiy asoslari. Ta'lim muassasalarida mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish va odam savdosiga qarshi kurashning huquqiy asoslari. Ta'lim to'g'risidagi qonun. Yangi tahrirdagi mehnat kodeksi. Ma'muriy huquq. Fuqarolik huquqi. Professional ta'limda huquq-tartibotni ta'minlash tushunchasi, mohiyati, prinsiplari, vazifalari va kafolatlari masalalari.

Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish.

2.2. Korruptsiyaga qarshi kurashish, "Halollik vaksinasi"

Ta'lim tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishning tashkiliy-huquqiy masalalari. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish. Korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish. "Halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa. Halollik vaksinasi – korruptsiyaga qarshi kurashishda muhim omil. Jamiyatda korruptsiyaga qarshi murosasizlik madaniyatini shakllantirish. Komplayens-nazorat bo'limlarining ish faoliyatining tashkil etilishi.

III. BOSHQARUVDA MOLİYAVIY-IQTISODIY MASALALAR

3.1. Ta'limda moliyaviy resurislarni boshqarish

Professional ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyatlarini boshqarishda foydalaniladigan normative-hujjatlar. Ta'lim muassasasining moliyaviy manbalari va ulardan foydalanish samaradorligi. Professional ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tartibi va manbalari. Professional ta'lim muassasalarining shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish. Moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi hamda to'g'riligini ichki nazorat va auditdan o'tkazib borish. Buxgalteriya hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarini yuritish. Hisobotlarni shakllantirish mexanizmlari. Moliyaviy munosabatlar, ularning elementlari. Ta'lim xizmatlari marketingini tashkil etish. Ta'lim sifatini ko'tarishda xodimlar mehnatini rag'batlantirish mexanizmlari. Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar turlarini bilish va budjet intizomiga rioya etish.

3.2. Budjet va budjetdan tashqari moliyaviy mablag'larni shakllantirish, moddiy-texnik bazani rivojlantirish.

Professional ta'lim muassasalarining yillik daromadlari va xarajatlari smetalarini shakllantirish. Ta'lim muassasasining mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish. Ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini yangilanib borish mexanizmlari. Muassasada pullik ta'lim xizmatlarini joriy qilish va budjetdan tashqari moliyaviy tushum manbalarini ko'paytirish. Ta'lim muassasasini moliyalashtirish mexanizmlari. Ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun investitsiyalar, grantlar va homiylik yordamini jalb qilish. Ta'lim sohasida nodavlat xizmatlar ko'rsatish va nodavlat xizmatlar sektorini rivojlantirish. Professional ta'lim tizimida davlat-xususiy sherikchilikni tashkil qilish asoslari. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etiladigan ta'lim tashkilotlari ahamiyati.

IV. BOSHQARUVDA MAS'ULIYAT VA MOSLASHUVCHANLIK

4.1. Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik (*change management*)

Mas'uliyat va moslashuvchanlik haqida tushuncha. Rahbar mas'uliyati.

Jarayonlarni boshqarish (*change management*). Jarayonlarni boshqarishning mohiyati. Jarayonlarni boshqarishning zamonaviy usullari. O'zgarishlarga moslashuvchanlikning modellari va texnologiyalari. Shaxslararo munosabatlarda moslashuvchanlikning ahamiyati. Jarayonlarni boshqarishda bashorat qilish, rejalashtirish, tahlil qilish va tartibga solish. Jarayonlarni boshqarish bosqichlari. Boshqarish jarayonining tarkibi. Boshqarish jarayonining xususiyatlari. Boshqarish jarayonining elementlari. Muammoni hal qilish bo'yicha misollar.

Ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish. Ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olish, ularni egallash va o'z kasbiy amaliyotiga joriy eta olish. Jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Jamoani boshqarishda kuzatiladigan muammolar, jamoani muvaffaqiyatli boshqarishda rahbar va xodim munosabatlari.

4.2. Boshqaruvda qarorlar qabul qilish

Boshqaruvda optimal qaror qabul qilish texnologiyalari. Boshqaruv qarorlari klassifikatsiyasi. Qaror qabul qilishning asosiy tamoyillari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish darajalari va unga ta'sir etuvchi omillar. Noaniqlik va tavakkal vaziyatlarda qarorlar qabul qilish usullari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda *tizimli*, *vaziyatli*, *intuitiv* yondashuv. Jamoaviy qarorlar qabul qilish texnologiyalari. Evristik va ekspert tahlil usullari. Qaror qabul qilishda iqtisodiy, siyosiy, tabiiy, ijtimoiy jihatlar talqini. Boshqaruv qarorlari ijrosi nazorati jarayonining mohiyati va turlari.

V. BOSHQARUVDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA MEDIASAVODXONLIK

5.1. Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik

Axborotlashtirish sohasidagi me'yoriy-huquqiy asoslar. Axborot texnologiyalariga oid XXI asrga xos bo'lgan hayotiy ko'nikmalar. Ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan axborot resurslari. Ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishga oid dasturiy mahsullar. Internet resurslari va ma'lumotlar bazalari. Ijtimoiy tarmoqlar orqali muassasa faoliyatiga oid ma'lumotlar va hujjatlarni almashish. Professional ta'lim jarayonini boshqarish tizimi bilan ishlash. Muassasa web-sayti, unga qo'yiladigan talablar. Ta'lim muassasalarini boshqarishda axborot tizimlaridan samarali foydalanish. Elektron hukumat tizimi. Axborot va interaktiv davlat xizmatlari. Internet tarmog'idagi kasbiy faoliyatga oid portallardagi dasturiy vositalardan boshqaruv jarayonida foydalanish. Elektron platforma. Mediata'limni rivojlantirish yo'llari. Moliyaviy elektron dasturlar bilan ishlash (O'zaspo, davlat xaridlari). Raqamli elektron kontentlar.

VI. KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

6.1. Boshqaruvda strategik rejalashtirish, kompetensiyalarni shakllantirish

Strategik menejment. Strategik rejalashtirish. Ta'lim muassasasi faoliyatining tahlillari. Mavjud muammolarni xal etish yo'llari, ularni baholash, nostandart yechimlarni aniqlash. Samarali maqsad qo'yish. Natijaga asoslangan boshqaruv (*result based management*). Sifatini umumiy boshqarish (*Total quality management*). Rahbar va pedagog xodimlarning samaradorlik ko'rsatkichlari (*key performance indicators*). Loyihalarni boshqarish (*project management*). O'quvchilarni kasbiy qobiliyatlarini aniqlashning zamonaviy usullari. O'quvchilarda yumshoq ko'nikmalarni (*soft skills*) shakllantirish masalalari. Xodimlarni motivatsiyalash: turlari, usullari, xodimlar ehtiyojlarini hisobga olish.

6.2. Muloqot samaradorligi kommunikativ kompetentlik, muzokaralar olib borish

Kommunikativ ko'nikma tushunchasi va turlari. Samarali muloqot qilish qobiliyati. Aloqa o'rnatish qobiliyatlarining asosiy turlari. Samarali muloqot qilish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar.

O'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarshi qo'yish) muloqot maneralarini tanlay olish. O'zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlandıruvchi) muloqot shakllarini tanlay olish.

Ta'lim muassasasida PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ni tashkil etish usullari. Ta'lim muassasalar faoliyatida PR imkoniyatlaridan foydalangan holda uni tanitish, o'zgartirish va zamonaviylashtirishda qo'llaniladigan usullar. Ta'lim muassasalarida korporativ menejment (hamkorlik masalalari). Inson resurslarini boshqarishda mehnat nizolarini hal etish tartibi.

6.3. Kreativ fikrlash va tashkilot madaniyatini shakllantirish

Rahbarning kasbiy kompetentligi va kreativligi. Rahbarning kasbiy kompetentligi va uning mohiyati. Rahbarning kreativligi. Rahbar kompetentligiga ta'sir etuvchi omillar va individual xususiyatlar. Ta'lim muassasini boshqarishining o'ziga xos xususiyatlari va faoliyatni innavatsion boshqarish. Boshqaruvda motivatsiya. Jamoa bilan ishlashda muammoli vaziyatlar, to'siqlar va ularni yechish texnikasi. Konfliktologiya asoslari. Pedagogik jamoadagi nizoli vaziyatlar. Nizolar va ularning turlari. Rahbar faoliyatida nizo va uni bartaraf etish yo'llari. Konfliktlarning olidini olishda mediatsiya. Stresslar to'g'risidagi bilimlarning rahbar faoliyatidagi ahamiyati. Rahbarning kreativ tafakkurini aniqlash.

6.4. Boshqaruvda strategik rejalashtirish, kompetensiyalarni shakllantirish

Boshqaruvda strategik kompetensiyalarni shakllantirish usul va metodlari. Innovatsiyalarni strategik rejalashtirish. Strategik rejalashtirish va uning

boshqaruvdagi roli. Strategik rejalashtirish modellari. Marketingda strategik rejalashtirishning mohiyati. Strategik boshqarish uslubi-yotini takomillashtirish.

6.5. Yoshlar tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini ta'minlash

Yoshlar tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini ta'minlash masalasi. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqorolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan g'oyani targ'ib etish. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yoritish. Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari. Milliy manfaatlarimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va ma'naviy tahdidlarning mohiyati, ushbu g'oyalarning aholining turli qatlamlariga ta'sirini oldini olish. Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarixiy manbalar, moddiy, ma'naviy va madaniy merosning ahamiyati. Ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashda ota-onalar hamkorligi. Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish. Targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish.

VII. O'ZINI-O'ZI RIVOJLANTIRISH

7.1. Boshqaruvda rahbarning zamonaviy qiyofasi

Boshqaruvda rahbarning zamonaviy qiyofasi va uning axloqi. Rahbarning zamonaviy qiyofasiga salbiy ta'sir etuvchi xolatlar ularni oldini olish yo'llari. Rahbarning faoliyati, boshqaruvi va ishni tashkillashtirish mahorati. Rahbarlik qobiliyati. Rahbarning boshqaruvchanlik va tashkilotchilik faoliyati. Rahbar psixologik portretini yaratish. Boshqaruv pedagogikasi va innovatsion boshqarish stili. Rahbarning motivatsion boshqaruv mahorati. Zamonaviy rahbarning ma'naviy qiyofasi va tashkilot imidjini rivojidadagi o'rni. Rahbarning emossional va social intlekti.

7.2. Ta'lim jarayonini tahlil qilish, muammolarini aniqlash

Tizimli tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Muammoni anglash va vaziyatni tizimli tahlil qilish. Vaziyatni tahlil qilish va qaror qabul qilishning ilg'or texnologiyalari. Qaror qabul qilishning usullaridan foydalanish. Muammolarni keltirib chiqarayotgan asl sabablarni o'rganish. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish va boshqaruvda foydalanish.

7.3. Rahbar imidji va etiket (self-management)

Rahbar imidji va muloqot madaniyati (*Self-management*). Ta'lim muassasasi rahbari imidjining o'ziga xos jihatlari va uni rivojlantirish usullari. Rahbar muloqot madaniyatini rivojlantirishga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar. Shaxsiy samaradorlik diagnostikasi. Rahbar va tashkilot imidjini shakllantirishda OAV o'rni va ahamiyati. Rahbar imidji va tashkilot obro'-e'tibori. Jamoani muvaffaqiyatli boshqarishda rahbar va xodim munosabatlari. Imidjelogiya. Imidj yaratishdagi PR texnologiyalari. Jamoani boshqarishda muloqot madaniyati.

7.4. Ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish mahorati

Ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish mahorati. Ilm-fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlari. Ilmiy-tadqiqot faoliyatida xalqaro hamkorlik masalasi. Pedagoglar ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi. Professional ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Ta'lim sifatini ta'minlashda ilmiy-tadqiqotchilarning roli. Ilmiy va texnologik salohiyatni rivojlantirish.

7.5. Rahbarlik va liderlik

Rahbarlik va liderlik tushunchasining mohiyati. Ta'lim jarayonini boshqarishda rahbarning roli. Boshqaruvda liderlikning o'rni va ahamiyati. Rahbarlik va liderlik sifatlarining jamoani boshqarishdagi roli. Ta'lim menejerlarida liderlik sifatini shakllantirishning zamonaviy shakllari. Liderlik qonunlari.

7.6. Ta'lim menejment: vaqtdan unumli foydalanish

Ta'lim menejmentining mazmun mohiyati. Boshqaruv jarayonida vaqtdan foydalanish. Samaradorlikka erishish yo'llari. Inson resurslarini boshqarishning klassik nazariyalari. Vaqtni samarali boshqarish. Ta'lim menejmentida PR – mexanizmini modulining nazariy uslubiy asoslari. Ta'lim tizimida PR mexanizmini qo'llash muammolari va xalqaro tajriba.

7.7. Ehtiyojga asoslangan modullar

Ehtiyojga asoslangan modullar ishchi o'quv rejasida aks ettirilib, tinglovchilar tanlovi asosida tashkil etiladi. Tinglovchilar tanlagan modullarga o'quv rejada belgilangan kreditdan oshib ketmagan holatda soatlar taqsimlanadi.

VIII. STAJIROVKA

8.1. Hududiy boshqarmalarda amaliyot o'tash

Maqsadli o'qitish kurslarida majburiy element sifatida tinglovchilarning stajirovkadan o'tishi nazarda tutiladi, stajirovkalar tinglovchilarni kasbiy o'qitishning mustaqil shakli hisoblanadi. Tinglovchilarning stajirovkasi vazirliklar, idoralar, oliy ta'lim muassasalari, iqtisodiyot va ijtimoiy soha tegishli tarmoqlarining tegishli tashkilotlarida tashkil etiladi. Stajirovkaning davomiyligi o'quv rejada belgilangan soat hajmida amalga oshiriladi. Tinglovchining stajirovka o'tash davridagi hisobotlari va qo'shimcha ma'lumotlari institutda jamlanadi.

IX. Tinglovchilar bilimini baholash

Malaka oshirish kursida tinglovchilar belgilangan modullar bo'yicha 56 foizdan yuqori o'zlashtirsa, modul uchun ajratilgan kredit beriladi. Tinglovchilar belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi. Tinglovchilar bilimini baholash har bir blok va uning modullarining mazmunidan testlar shakllantiriladi va belgilangan talablar bo'yicha amalga oshiriladi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Me'zoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son farmoni.
6. 2022-yil 29-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni.
7. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son qarori.
11. 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohatlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qaror.
12. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 106-son qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi "Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 648-son qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quv asbob-uskunali va anjomlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida" 2017-yil 2-iyundagi 345-son qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" 2017-yilning 12-yanvaridagi PQ-3271-son qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 3-dekabrda Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining boshqaruv kadrlari zaxirasini maqsadli o'qitishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 351-sonli qarori ijrosini ta'minlash.

Asosiy adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X., va b. Personalni boshqarish. Darslik.-T.: "Iqtisodiyot", 2013.
2. Ansoff I. Strategicheskiy menedjment / SPb.: Piter, 2009.
3. Barinov V.A., Xarchenko B.L. Strategicheskiy menedjment. — M.: Infra-M, 2005.
4. Vesnin V.R. Strategicheskoe upravlenie. — SPb.: TK Velbi, Prospekt, 2006.
5. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti, Toshkent "VORIS-NASHRIYOT" 2006.
6. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" "Nihol", -T.2013.
7. Sharifxo'jayev M.Sh, Abdullayev Yo. "Menejment".- Darslik. 2001.
8. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ta'lim menejmenti.-T, 2006.
9. Paxrutdinov Sh. Barqaror taraqqiyot va rahbar ma'suliyati. -T.: Akademiya, 2011.
10. Turg'unov S.T. Ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatini nazariy asoslari. "Fan", Toshkent. 2006.
11. Xudoyberganov Q.T., Nurmuxamedov T.R. va b. Xodimlar menejmenti. Darslik. T.: 2010.

Internet manbalari:

1. <https://onlinedu.uz/>
2. <http://lex.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.uzedu.uz>
5. <http://www.lex.uz>
6. <http://www.bimm.uz>
7. <http://www.ziyonet.uz>
8. <http://www.wikipedia.org>
9. <http://www.oecd.org>

**Профессional таълимни ривожлантириш институти
профессional таълим муассасалари бошқарув кадрлар захирасини
мақсадли ўқитиш курси учун тайёрланган ўқув дастурига**

ТАҚРИЗ

Профессional таълим муассасалари бошқарув кадрлар захирасини мақсадли ўқитиш курси учун тайёрланган ўқув дастури бугунги куннинг талаб ва тақлифларини инобатга олган ҳолда ишлаб чиқилган бўлиб, дастурларнинг таркибида таълимда бошқарув, бошқарувда ҳуқуқий масалалар, бошқарувда молиявий-иқтисодий масалалар, бошқарувда масъулият ва мослашувчанлик, бошқарувда ахборот-коммуникация технологиялари ва медиа саводхонлик, раҳбарнинг коммуникатив кўникмалар ривожлантириш, ўзини-ўзи ривожлантириш ва тингловчилар билимини баҳолаш каби блокларни камраб олган.

«Ҳаёт давомида таълим олиш» тамойили асосида бошқарув кадрларнинг узлуксиз малакасини оширишга қаратилган ўқув дастурлари мазмуни тингловчиларга жамиятда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг мазмуни ва таълим-тарбия жараёнларини ташкил этишининг ҳуқуқий-меъёрий асослари, таълим муассасаларини бошқаришнинг илғор технологиялари ва хорижий тажрибаларни ўргатиш, раҳбар ходимларни таълим муассасаларини бошқаришнинг молиявий-иқтисодий масалаларига доир билимлар билан қуроллантиришга қаратилган манбаалар билан бойитилган.

Мазкур дастур мақсадли ўқитиш курсининг илғор ва шаффоф ташкилий-ҳуқуқий механизмларини тадбиқ этиш йўли билан профессионал таълим тизимида кадрлар сиёсатини шакллантиришнинг замонавий тамойилларини жорий этиш бўйича белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган бўлиб, замонавий талаблар асосида профессионал таълим муассасалари захира кадрларни тайёрлаш жараёнларининг мазмунини такомиллаштириш ҳамда уларнинг касбий компетентлигини кредит-модуллари орқали мунтазам оширишни назарда тутган ҳолда ишлаб чиқилган.

Шу билан бирга мазкур дастурнинг таркибида келтирилган кичик мавзуларнинг айримларига ўзгартириш ва қўшимчалар киртилсадастурнинг қийматини янада оширади ва тингловчилар компетенцияларини янада ривожлантиришга хизмат қилади. Лекин, ушбу камчиликлар дастурнинг мазмунига ўз таъсирини кўрсатмайди.

Профессional таълим муассасалари бошқарув кадрлар захирасини мақсадли ўқитиш курси учун ишлаб чиқилган ўқув дастур талаблар асосида ишлаб чиқилган.

Мазкур ўқув дастурни тасдиқлашга ва амалиётга жорий этишни тавсия этаман.

Жиззах вилояти Олий таълим ва
инновациялар бошқаруви ва
Техника фанлари институти, доцент



С.Тавбоев

**Профессионал таълимни ривожлантириш институти
профессионал таълим муассасалари бошқарув кадрлар захирасини
мақсадли ўқитиш курси учун тайёрланган ўқув дастурига**

ТАҚРИЗ

Профессионал таълим муассасалари бошқарув кадрлар захирасини мақсадли ўқитиш курси учун тайёрланган ўқув дастури бугунги куннинг талаб ва таклифларини инобатга олган ҳолда ишлаб чиқилган бўлиб, дастурларнинг таркибида таълимда бошқарув, бошқарувда ҳуқуқий масалалар, бошқарувда молиявий-иқтисодий масалалар, бошқарувда масъулият ва мослашувчанлик, бошқарувда ахборот-коммуникация технологиялари ва медиа саводхонлик, раҳбарнинг коммуникатив кўникмаларм ривожлантириш, ўзини-ўзи ривожлантириш ва тингловчилар билимини баҳолаш каби блокларни қамраб олган.

«Ҳаёт давомида таълим олиш» тамойили асосида бошқарув кадрларнинг узлуксиз малакасини оширишга қаратилган ўқув дастурлари мазмуни тингловчиларга жамиятда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг мазмуни ва таълим-тарбия жараёнларини ташкил этишнинг ҳуқуқий- меъёрий асослари, таълим муассасаларини бошқаришнинг илғор технологиялари ва хорижий тажрибаларни ўргатиш, раҳбар ходимларни таълим муассасаларини бошқаришнинг молиявий- иқтисодий масалаларига доир билимлар билан қуроллантиришга қаратилган манбаалар билан бойитилган.

Мазкур дастур мақсадли ўқитиш курсининг илғор ва шаффоф ташкилий-ҳуқуқий механизмларини тадбиқ этиш йўли билан профессионал таълим тизимида кадрлар сиёсатини шакллантиришнинг замонавий тамойилларини жорий этиш бўйича белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган бўлиб, замонавий талаблар асосида профессионал таълим муассасалари захира кадрларни тайёрлаш жараёнларининг мазмунини такомиллаштириш ҳамда уларнинг касбий компетентлигини кредит-модуллари орқали мунтазам оширишни назарда тутган ҳолда ишлаб чиқилган.

Шу билан бирга мазкур дастурнинг таркибида келтирилган кичик мавзуларнинг айримларига ўзгартириш ва қўшимчалар киртилса дастурнинг қийматини янада оширади ва тингловчилар компетенцияларини янада ривожлантиришга хизмат қилади. Лекин, ушбу камчиликлар дастурнинг мазмунига ўз таъсирини кўрсатмайди.

Профессионал таълим муассасалари бошқарув кадрлар захирасини мақсадли ўқитиш курси учун ишлаб чиқилган ўқув дастур талаблар асосида ишлаб чиқилган.

Мазкур ўқув дастурни тасдиқлашга ва амалиётга жорий этишни тавсия этаман.

**Навоий вилояти олий таълим, фан ва
инновациялар бошқармаси бошлиғи**



Ў.Мирзоев